



## Xizmatlar sohasining rivojlanishi


(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4033,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,8 % ni tashkil etdi


### 2018 yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: 2017 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 3241,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 792,0 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2018 yil yanvar-oktabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 401,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

### 2018 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (101,9 mlrd. so'mga), transport xizmatlari savdo xizmatlari (102,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (62,6 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (25,8 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4033,4</b>	<b>112,8</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	303,5	111,9
moliyaviy xizmatlar	532,3	145,7
transport xizmatlari	1112,7	115,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	623,9	105,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	124,6	110,2
savdo xizmatlari	1019,8	104,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	143,2	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	193,7	109,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	44,4	102,1
ijara xizmatlari	91	110,0
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	138,2	102,3
shaxsiy xizmatlar	165,4	103,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	47,5	120,9
boshqa xizmatlar	117,1	100,6

## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (45,7 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (20,9 %); transport xizmatlari (15,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	27,6 %
Savdo xizmatlari	25,3 %
Moliyaviy xizmatlar	13,2 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7,5 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	4,8 %
Shaxsiy xizmatlar	4,1 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,5 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,4 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,1%
Boshqa xizmatlar	2,9 %
Ijara xizmatlari	2,3 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,2 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 27,6 %), savdo xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (13,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi



Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1112,7 mlrd.so'm), savdo xizmatlari (1019,8 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (532,3 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (303,5 mlrd.so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (193,7 mlrd,so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1019,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 25,3 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 77,2 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 14,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 8,0 % ni egallaydi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida  
savdo xizmatlari tarkibi, %**



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil choratadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 532,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 145,7 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



**Qoraqalpog'iston Respublikasi**  
**statistika boshqarmasi**  
**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

*Mas'ul: B.Tajibekov*  
*(71)230-82-15*